

**60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr ta'lim yo'nalishining
4^b-kurs talabalari uchun “Geografiyadan masala va mashqlar” fanidan
Yakuniy nazorat savollari**

1. O'quvchilar yozgi dam olish oromgohiga avval shimoliy – sharqiy, so'ngra janubiy, keyin esa janubiy-g'arbiy yo'nalishda jo'nab ketdilar. Ular oromgohdan xuddi shu yo'l bilan qaytsalar qaysi yo'nalishlar bo'yicha yuradilar?
2. +10°C haroratli havoning 1 m³ da 4,14 gr suv bug'i borligi ma'lum, havoning nisbiy namligini aniqlang.
3. AQShdagi Boston shahri 71° g'arbiy uzunlikda joylashgan. U qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlang.
4. Toshkent shahrida yillik yog'in miqdori 367 mm ni tashkil etadi ushbu ma'lumotdan foydalanib 1 gektar maydonda qancha metr kub yog'in tushishini hisoblang.
5. Orol dengizi bo'yida yillik yog'in miqdori 200 mm, bug'lanuvchanlik esa 1000 mm ga teng, namlik koeffitsiyentini toping.
6. Agar maktabga 45° azimut bilan borgan bo'lsangiz, uyga qaysi yo'nalishda qaytasiz?
7. O'quvchi uydan chiqib shimol yo'nalishda 300 m, keyin sharq yo'nalishda 150 m va janubga qarab 150 metr masofani bosib o'tdi. 1 sm da 100 m masshtabda o'quvchi bosib o'tgan yo'l marshrutini daftaringizga chizing.
8. Argentina poytaxti Buenos-Ayres shahri 58° g'arbiy uzunlikda joylashgan. U qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlang.
9. Harorati +30°C bo'lgan bir metr kub havoning tarkibida 20,3 gramm suv bug'i bo'lib, to'yinish uchun yana 10,10 gramm suv kerak. Havoning to'yinuvchanlik darajasini foizda hisoblang.
10. Dengiz qirg'og'ida atmosfera bosimi 760 mm simob ustuniga teng bo'lsa, aholi punktida bu bosim 728 mm ga teng. Aholi punkti joylashgan joyning mutloq balandligini toping.
11. Daftaringizga 30°, 60°, 300°, 330° li azimut yo'nalishlarini chizing va u ufqning qaysi yo'nalishi ekanligini ko'rsating.
12. Yerning yuza qismida +5°C harorat bo'lsa suv qaynashi mumkin bo'lgan chuqurlikni hisoblab toping.
13. Kievdan Qarag'andagacha bo'lgan 2950 km li masofa kartada 11,8 sm ga teng bo'lsa, xuddi shu masofa kartada 8,2 sm ga, shu masofaning o'zi 16,4 sm ga teng bo'lsa, bu kartalarning masshtabi qanday bo'ladi? Qaysi kartaning masshtabi kichik?
14. Andijon meteorologik stansiyasida yillik yog'in miqdori 236 mm yog'in tushganligi aniqlangan. 1 km.kv. maydonda necha metr kub yog'in tushganligini hisoblab toping.
15. Termiz shahrida yillik yog'in miqdori 133 mm, bug'lanuvchanlik esa 1500 mm ga teng, namlik koeffitsiyentini toping.
16. 30 metr chuqurlikkacha doimiy harorat +10°C bo'lgan joydagi 1,5 km, 3000 metr chuqurlikda qazilgan quduqlardagi suv harorati necha gradusga teng ekanligini aniqlang.
17. Toshkentdan yo'lga chiqqan “Afrosiyob” tezyurar poyezdi Buxoroga yetib kelguncha 550 km masofani bosib o'tdi. Ushbu masofa kartada 11 sm ga teng. Kartaning masshtabini aniqlang.
18. 2017-yil ma'lumoti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 32,6 mln kishi, maydoni esa 448,9 ming km² ni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib mamlakat aholisi zichligini aniqlang.
19. Toshkentda havo harorati + 27°C, Sidneyda havo harorati + 12°C bo'lsa, bu shaharlardan 4 km balanddagi havo haroratini aniqlang.
20. 1 metr kub havoda +30°C da 12,99 gr suv bug'i borligi ma'lum, havoning nisbiy namligini aniqlang.
21. Otilib chiqqan lava harorati 800°C bo'lsa, u qancha chuqurdan chiqayotganligini hisoblab toping.
22. O'zbekiston aholisi 2017-yil 1-yanvar bo'yicha, 32 120 500 kishini tashkil etdi. Mamlakatda yil davomida tug'ilganlar soni 715 500 kishini, vafot etganlar soni esa 161 500 kishini tashkil etdi. Migratsiyada qatnashganlar 334 800 kishini tashkil etgan holda, shundan 157 100 nafari

immigrant, 177 700 nafari emigrant bo'lsa, 2018-yil 1-yanvar holatida O'zbekiston doimiy aholisini toping.

23. Toshkentda havo harorati + 27°C, Sidneyda havo harorati + 12°C bo'lsa, bu shaharlardan 4 km balanddagi havo haroratini aniqlang.

24. Shimoliy Amerikadagi Buyuk ko'llarga qaysi ko'llar kiradi. Uning ichida eng chuquri 0,52 sekundli tezlikdagi exolot signalini ko'rsatdi. Bu qaysi ko'l.

25. Makenzi Atabaska irmog'i bilan uzunligi 5472 km, uning havzasining maydoni esa 1800000 km.kv. daryo tarmoqlari zichligini toping.

26. Termometr 8 km balandlikda – 18°C ko'rsatadi. Bu vaqt yer yuzasidan havo harorati qanchaga tengligini hisoblab toping.

27. Agar 0° – meridianda soat 12⁰⁰ kunduzi bo'lsa 30° g'b. u. va 30° shq.u. da soat necha bo'lishini hisoblab toping.

28. 2018-yil Yer yuzi aholisi 7 mlrd 620 mln kishini tashkil etganini inobatga olgan holda, ushbu yildagi 14 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 26 foizni tashkil etsa, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar sonini aniqlang.

29. Kitobdagi meteorologik kuzatishlar yanvar oyida 76 mm, fevralda 62 mm, martda 105 mm yog'in tushganligini ko'rsatdi. Dastlabki uch oyda 1 ga maydonda va 1 km.kv. maydonda qancha yog'in tushishini hisoblab toping.

30. Uchib borayotgan dirijablda o'rnatilgan barometr 238 mmni ko'rsatadi. Uning yer yuzasidan balandligini toping.

31. Agar tog' etagidagi havo harorati +26°C tog' cho'qqisida + 10°C bo'lsa, bu tog'ning balandligini toping.

32. 2015-yil jahon aholisi 7 320 943 000 kishini tashkil etgani holda, 3 880 099 790 kishi shaharlarda yashagan. Shu yilgi jahon urbanizatsiya ko'rsatkichini aniqlang.

33. Kievdan Moskvagacha bo'lgan 750 km li masofa kartada 3 sm ga teng bo'lsa, kartaning masshtabini aniqlang.

34. Samarqanddagi meteorologik stansiyada yillik yog'in miqdori 328 mm ekanligi aniqlangan. 1 km.kv. maydonda qancha yog'in tushishini aniqlang.

35. Arxangelsk shahrida yillik yog'in miqdori 500 mm, bug'lanuvchanlik esa 400 mm ga teng, namlik koeffitsiyentini toping.

36. Dengiz sathidan havo harorati +25°C bo'lsa, 2,4 km balandlikda havo harorati qancha bo'lishini hisoblab toping.

37. Kechasi soat 1⁰⁰ da - 2°C; 7⁰⁰ da -4°C; 12⁰⁰ da + 7°C; 19⁰⁰ da + 4°C havo harorati o'lchangan. O'rtacha sutkalik havo haroratini aniqlang.

38. Toshkent shahrida (4-soat mintaqasi) kunduzi soat 1225 bo'lganda, Vashington shahrida (780 g'arbiy uzunlikda) soat necha bo'lishini hisoblab toping.

39. +10°C haroratli havoning 1 m.kub. da 4,14 gr suv bug'i borligi ma'lum, havoning nisbiy namligini aniqlang.

40. Iyul oyida Pomir, Kavkaz va Ural tog'lari etaklarida havo harorati +36°C; +24°C; +20°C bo'lsa, bu tog'larning eng baland cho'qqisida havo haroratini o'lchab toping.

41. Yaltada iyul oyining o'rtacha havo harorati +24,2°C, yanvar oyining o'rtacha harorati +3,7°C; Kiyevda iyul oyining o'rtacha havo harorati +19,3°C, yanvar oyining o'rtacha -6°C bo'lsa, har ikkala shaharda havo haroratining yillik tebranish amplitudasini hisoblang.

42. Dengiz qirg'og'ida atmosfera bosimi 760 mm simob ustuniga teng bo'lsa, aholi punktida bu bosim 728 mm ga teng. Aholi punkti joylashgan joyning mutloq balandligini toping.

43. 1 metr kub havoda +20 °C da 14 g suv bug'i borligi ma'lum, havoning nisbiy namligini aniqlang.

44. G'uzorda qish faslida 105 mm yog'in yog'ishi aniqlangan 1 gektar maydonda bu faslda necha m.kub. suv to'planadi.

45. Samara shahrida namlik koeffitsiyenti esa 0,7 bug'lanuvchanlik 750 mm ga teng yillik yog'in miqdorini toping.

46. Kievdan Murmanskka bo'lgan 2050 km li masofa kartada 4,1 sm ga, xuddi shu masofa kartada 8,2 sm ga, shu masofaning o'zi 16,4 sm ga teng bo'lsa, bu kartalarning masshtabi qanday bo'ladi?
47. Atmosfera bosimi A nuqtada 350 mm simob ustunligi, B nuqta 550 mm simob ustunini tashkil etadi. Agar B nuqtada havo harorati +5 °C bo'lsa, A nuqtadagi nisbiy balandlik va haroratni aniqlang.
48. +30°C haroratli havoning nisbiy namligi 60% ga teng. 1 metr kub havodagi suv bug'i miqdorini aniqlang.
49. Tog' etagida bosim 720 mm simob ustuniga teng bo'lsa, tog' cho'qqisidagi bosim esa 570 mm simob ustuniga teng. Nisbiy balandlikni aniqlang.
50. Farg'onada qishda 56 mm, bahorda 67 mm, yozda 21 mm, kuzda 30 mm yog'in yog'adi. Har bir faslda yillik yog'inning necha foiz yog'ishini hisoblab toping.
51. Okean tubiga qarab exolotdan yuborilgan tovush to'lqini 8 sekundga qaytib kelgani qayd etilgan bo'lsa okean chuqurligini aniqlang.
52. +20°C haroratli havoning 1 m³ da 8,5 gr suv bug'i borligi ma'lum, havoning nisbiy namligini aniqlang.
53. A nuqtada havo harorati -28°C, havo bosimi 480 mm simob ustuniga teng, B nuqtada esa normal atmosfera bosimi (760 mm) B nuqtadagi havo haroratini aniqlang.
54. Kitob shahrida yillik yog'in miqdori 545 mm bug'lanuvchanlik esa 1250 mm ga teng namlik koeffitsiyentini toping.
55. Nurotada yillik yog'in miqdori 206 mm, qishda yog'inning 43%; bahorda 43%; yozda 2%; kuzda 12% tushadi. Har faslda necha mm yog'in yog'ishini hisoblang.
56. Grelandiya dengizining eng chuqur joyi 5527 metr exolotdan yuborilgan ultratovush necha sekundga borib qaytib kelishini hisoblang.
57. Kievdan Toshkentgacha bo'lgan 2490 km li masofa kartada 75 sm ga teng bo'lsa, xuddi shu masofa kartada 15 sm ga, shu masofaning o'zi 83 sm ga teng bo'lsa, bu kartalarning masshtabi qanday bo'ladi? Qaysi kartaning masshtabi kichik?
58. A nuqta harorati -40°C, havo bosimi 380 mm simob ustuniga teng, B nuqtada esa normal atmosfera bosimi (760 mm) B nuqtadagi havo haroratini aniqlang.
59. 40% nisbiy namlikka ega bo'lgan havoda suv bug'i miqdori 2,91 gr ekanligi ma'lum. Havoni to'liq to'yinish uchun necha gramm suv bug'i va havo haroratini aniqlang.
60. Termometr 8 km balandlikda - 18°C ko'rsatadi. Bu vaqt yer yuzasidan havo harorati qanchaga tengligini hisoblab toping.
61. Daftaringizga 90°, 70°, 220°, 315° li azimut yo'nalishlarini chizing va u ufqning qaysi yo'nalishi ekanligini ko'rsating.
62. Yerning yuza qismida +5°C harorat bo'lsa 3400 m balandlikdagi haroratni hisoblab toping.
63. Kievdan Moskvagacha bo'lgan 1980 km li masofa kartada 15 sm ga teng bo'lsa, xuddi shu masofa kartada 30 sm ga, shu masofaning o'zi 12 sm ga teng bo'lsa, bu kartalarning masshtabi qanday bo'ladi? Qaysi kartaning masshtabi kichik?
64. Buxoro shahrida yillik bug'lanish miqdori 1200 mm namlik koeffitsiyenti 0,2 ga teng yillik yog'in miqdorini toping.
65. Omonqo'tondagi meteorolik kuzatishlar qishda 337 mm; bahorda 394 mm; yozda 24 mm va kuzda 99 mm yog'in tushishini ko'rsatadi. Har faslda necha foiz yog'in yog'ishini hisoblab toping.
66. Dunyodagi eng yirik ko'l Kaspiy dengizining eng chuqur joyi 1025 metr, exolotdan bu chuqurlikka yuborilgan ultratovush qancha vaqtga borib qaytib kelishini hisoblab toping.
67. Toshkentdan yo'lga chiqqan "Afrosiyob" tezyurar poyezdi Buxoroga yetib kelguncha 660 km masofani bosib o'tdi. Ushbu masofa kartada 16 sm ga teng. Kartaning masshtabini aniqlang.
68. Ma'lumoti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 36,2 mln kishi, maydoni esa 448,9 ming km² ni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib mamlakat aholisi zichligini aniqlang.

69. AQShning mashhur Yellowstone milliy bog'idan otilib chiqayotgan geyzerlarning birining suv harorati $+88^{\circ}\text{C}$. U necha metr chuqurlikdan otilib chiqayotganligini aniqlang.
70. Shimoliy Amerikadagi Katta qullar ko'lining chuqurligi 614 metrni tashkil etadi. Ultratovush signalining bu chuqurgacha borib qaytish tezligini aniqlang.
71. 40% nisbiy namlikka ega bo'lgan havoda suv bug'i miqdori 2,91 gr ekanligi ma'lum. Havoni to'liq to'yinish uchun necha gramm suv bug'i va havo haroratini aniqlang.
72. O'zbekiston aholisi 2017-yil 1-yanvar bo'yicha, 32 120 500 kishini tashkil etdi. Mamlakatda yil davomida tug'ilganlar soni 71 500 kishini, vafot etganlar soni esa 16 500 kishini tashkil etdi. Migratsiyada qatnashganlar 33 800 kishini tashkil etgan holda, shundan 15 100 nafari immigrant, 17 700 nafari emigrant bo'lsa, 2018-yil 1-yanvar holatida O'zbekiston doimiy aholisini toping.
73. Boltiq dengizi suv sho'rliigi 3 promille ga teng. Uning suvidan 1 m^3 olinsa, unda qancha tuz borligini hisoblang.
74. Atmosfera bosimi A nuqtada 350 mm simob ustunligi, B nuqta 550 mm simob ustunini tashkil etadi. Agar B nuqtada havo harorati $+5^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, A nuqtadagi nisbiy balandlik va haroratni aniqlang.
75. $+20^{\circ}\text{C}$ haroratli havoda nisbiy namlik 75% ni tashkil etadi. Bu havoning 1 metr kubida suv miqdori qancha grammga ko'paytirilsa, havo to'yinib yog'in ajrala boshlaydi.
76. Yerning yuza qismida $+5^{\circ}\text{C}$ harorat bo'lsa suv qaynashi mumkin bo'lgan chuqurlikni hisoblab toping.
77. Oka daryosining boshlanish joyidagi balandlik 2245 m, quyilish joyidagi balandlik 163 m, daryo uzunligi esa 1478 km ekanligi ma'lum bo'lsa, uning nishabligini aniqlang.
78. Tyanshan tog'ida 30 sm qalinlikda zichligi $0,40\text{ gr/sm.kub.}$ ga teng qor yog'di. Suv miqdorini aniqlang?
79. Toshkent shahrida yillik yog'in miqdori 370 mm, bug'lanuvchanlik 1000 mm ga teng namlik koeffitsiyenti toping.
80. Agar tog' etagidagi havo harorati $+26^{\circ}\text{C}$ tog' cho'qqisida $+10^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, bu tog'ning balandligini toping.

